

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARIDA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA NOSTANDART VAZIYATLARNI TASHKIL ETISH MASALALARI

Raxmatova Nodira Imamovna

Qarshi Davlat Universiteti mustaqil tadqiqotchisi

+998907330770 raxmatova.nodira@gmail.ru.

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinif o'qituvchilarida kreativ fikrlashni shakllantirish masalasining zamonaviy talqini yoritilgan. Shuningdek, maqolada kreativ fikrlashga oid tushunchalarni nostandart vaziyatlar asosida rivojlantirish masalalari tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinif, o'quvchilar kreativligi, psixologik ta'sir, kreativ fikrlash, psixologik xususiyat.

Hozirga qadar, shaxsning kasbiy faoliyati va bo'lajak sohaga tayyorgarligi masalasi borasida ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, ularda shaxsning turli sohalardagi imkoniyat va yutuqlari borasida o'ta ahamiyatga ega ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Mazkur masalalar orasida kreativ fikrlash masalasi alohida ahamiyat kasb etib, ko'plab psixolog, pedagog olimlarning e'tiborini tortib kelgan.

Mohiyatan, malakali mutaxassisning o'ziga xos xususiyati va uning individual imkoniyatlari masalasi keyinchalik, fanda "kreativlik" muammosi asoslanishiga keng xizmat qildi. Hozirgi kunda, psixologik, pedagogik hamda akmeologik tadqiqotlarda ushbu masala eng muhim mavzulardan biri hisoblanadi, chunki kreativlik inson faoliyati samaradorligining va kasbiy mahoratining zaruriy shartlaridan biridir. Psixologiya, pedagogika va akmeologiya fanlarida qator kreativlik turlari farqlanib, ularga kasbiy, ijtimoiy, psixologik, kommunikativ, autopsixologik, konfliktologik, ijtimoiy-psixologik, boshqaruv kreativliklari kabilari kiritiladi.

Biroq, ushbu kreativlik turlari xali -hanuz muhim yagona ta'rif yoki tavsifga ega emas. Ya'ni kreativliklar o'rtasidagi o'zaro aloqalar, tizimli xususiyatlar, ularni shakllanish va rivojlanish mexanizmlari, amaliyot uchun muhim bo'lgan ayrim tarkibiy qismlari yetarlicha ilmiy asosga ega emas.

Tadqiqotchi T.V.Amelchenko o'zining "bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligi" nomli monografiyasida, kreativ fikrlashning namoyon bo'lishiga xizmat qiluvchi quyidagi psixologik komponentlar turini ajratadi:

– Motivatsion – qadriyatli komponent - bu bo'lajak mutaxassisning kasbiy faoliyatga shaxsiy munosabati, uning o'quv motivatsiyasi, shaxsiy maqsadlari va qiziqishlari kabilari bilan bog'liq. Bundan tashqari, mazkur komponent faoliyatga bo'lgan ijobiy hissiy munosabat, muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlikka yetarlicha darajada javobning namoyon bo'lishi, hissiylik, kasbiy faoliyatning ahamiyati

to'g'risida xabardorlik, kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini tarbiyalash hamda o'zini takomillashtirish harakatlarida yaqqol namoyon bo'ladi;

– Kognitiv komponent, bu har bir bo'lajak mutaxassisning soha haqidagi tushunchalari, kasbiy tasavvurlari, qobiliyati bilimlarni o'zlashtirishdagi yutuqlari, o'z kelajagiga bo'lgan munosabati kabilardan iborat;

– Faoliyatga asoslangan komponent – bu mutaxassislarda shakllangan ko'nikma va malakalar darajasi bilan tavsiflanib, unda umumiy kasbiy maxsus bilimlar shuningdek, mavjud ko'nikma va qobiliyatlardan samarali foydalana olish qobiliyati, kasbiy faoliyatni yanada rivojlantirish va takomillashtirishga tayyorgarlik kabilardan orqali tushuntiriladi;

– Shaxslilik komponent – bu shaxsga xos individual psixologik xususiyatlar to'plamidan iborat bo'lib, u o'qish uslubi, faoliyat sur'ati hamda o'zaro munosabatlardagi sifatlar bilan tavsiflanadi. Demak, shaxsning individual-psixologik xususiyatlari ham kreativ fikrlashlar shakllanishi uchun muhim psixologik asoslar sanalib, ular orqali biz insonlarni o'rta, yuqori, past darajadagi kishilar sifatida baholashga harakat qilamiz. “Kreativ fikrlash” shakllanishini tushuntirish masalasida “professionallik” tushunchasi farqlanib, uni tahlil etish muammoga oid ko'plab psixologik komponentlarning mohiyatini anglashga keng imkon beradi.

S.A.Drujilovning aytishicha, faoliyatdagi professionallik quyidagilar orqali tushuntirilishi lozim:

– Shaxsning o'ziga xosligi - bu shaxsga xos ichki dunyo bo'lib, u kasbiy faoliyatning yuqori samaradorligi va miqdoriy darajasi uchun mas'uldir;

– Jarayon - doimiy va izchil dinamikada bo'lgan hodisadir. U o'zining rivojlanish bosqichlariga ega va shunga mos ravishda dinamik xususiyatlarga ham egadir;

– Holat - bu ma'lum bir vaqt ichida ong tomonidan aniqlangan, atrofdagi kasbiy va ijtimoiy muhitdan kelib chiqadigan, turli xil ogohlantirishlarga ichki va tashqi reaksiyalar majmuasi shaklida namoyon bo'lgan, mutaxassisning umumiy holatidir.

– Ongsiz ravishdagi qobiliyatsizlik. Mazkur bosqichda inson zarur bilim, ko'nikma va ko'nikmalarga ega emas hatto, muvaffaqiyatli faoliyat uchun qanday harakat qilish to'g'risida ham bilmaydi. Ya'ni “men bilmagan narsani bilmayman” qabilida ish tutadi. Keyinchalik, inson o'z sohasi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va qobiliyatlarning yetishmayotganligini anglagach, u ikkinchi bosqichga qadam qo'yadi;

– Ongli qobiliyatsizlik. Bu bosqichda inson o'zining kasbiy bilimlari, ko'nikmalari va qobiliyatlari yetishmasligini tushunib yetadi. Ikkinchi bosqich quyidagi mazmunda kechadi, “men bilmasligimni bilaman”. Demak, bu

mulohazada ijtimoiy passivlik e'tiborga olingan bo'lib, ishga va o'qishga bo'lgan past motivatsiya bilan xarakterlanadi;

– Ongli kompetensiya. Inson nimalarga erishganligini hamda nimalarni yo'qotganligini anglab yetadi. Va kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar takomillashtiriladi. Uchinchi bosqich sub'ektning o'zini o'zi professional tarzda baholashi bilan tavsiflanib, unda “men yetarlicha bilaman” mazmunida harakat qilinadi.

– Mahoratga asoslangan kompetensiya. Bunda shaxs xulq-atvorida shakllangan kasbiy ko'nikmalar hayotining bir qismiga aylanadi hamda kasbiy so'nish yoki kasbiy deformatsiya jarayonining oldi olinadi. Shuning uchun, har qanday ta'lim muhiti interaktiv o'qitish usullariga mos tarzda tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib, kreativ fikrlashni shakllantirishda quyidagi psixologik tarkiblarni taklif etish mumkin:

- Epistemologik (yangi bilimlarni olish va to'plash);
- Shaxsiy (kasbiy va shaxsiy fazilatlar);
- Refleksiv (o'z-o'zini anglash va qadrlash qobiliyati).

Mashhur shvetsariyalik psixolog J.Piaje ham, o'z tadqiqotlarida mantiqiy tafakkur rivojlanishining ikki bosqichini ajratib ko'rsatdi:

1.Konkret-konseptual bosqich. Mazkur bosqichda shakllanadigan barcha aqliy operatsiyalar aniq vizual ma'lumotlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu omil kreativ fikrlashni shakllantirishning zaruriy shartidir. Ushbu bosqichda bolalarning barcha mulohazalari va xulosalari predmetlarning mavjud bo'lgan belgilariga mos bo'lib, ular quyidagicha xarakterlanadi: u bolaning hayotiy tajribasiga qanchalik yaqin bo'lsa, unda vaziyat bo'yicha xulosalar chiqarish shuncha osonroq bo'ladi. Bolalar mulohaza yuritishning asosi sifatida, doimo aniq misollar, harakatlar, tasvirlarga tayanadilar. Barcha aqliy operatsiyalar o'zlashtirilgan aniq tushunchalardan foydalanish asosida shakllanadi;

2.Abstrakt-konseptual bosqich. Bunda bolalar mavhum tushunchalar, umumiy tushunchalar, umumiy qonunlar haqida fikr yurita boshlaydilar, shuningdek, yangi tushunchalar tizimini o'zlashtirish jarayoni ham kechadi. Bolalar mulohaza yuritish, o'z fikrlarini asoslash, xulosalarining to'g'riligini isbotlash, fikrlash jarayonini amalga oshirish va uni nazorat qilish qobiliyatiga ega bo'la boradilar. Shu bois ham, oxirgi bosqichda, o'zaro bog'langan, umumlashtirilgan aqliy operatsiyalarning butun tizimi paydo bo'ladi. Demak, muallifning mulohazalariga muvofiq, vizual ma'lumotlarni tasvirlay olish hamda ma'lumotlarni abstraksiya qila olish qobiliyati kabilar, kreativ fikrlashning asosini tashkil etuvchi mexanizmlar sanaladi. Ayrim pedagogik tadqiqotlarda kreativ fikrlashning tarkibiy qismlari asosan, mantiqiy tafakkurning funksiyasi va tuzilish komponentlari bilan uyg'un holda tushuntirilgan.

Y.V.Aksenovanning yozishlariga qaraganda, kreativ fikrlashni rivojlantirishda nostandart topshiriqlardan foydalanishning samaradorligini ta'minlash masalalarida, katta izlanishlar olib borgan olimlar guruhiga A.Z.Zak, YU.M.Kolyagin, L.M. Liktarnikov, L.G. Peterson, D.N.Poya, G.I.Saransev, L.M.Fridman kabi tadqiqotchilarni kiritish mumkin.

Bizningcha ham, nostandart vazifalar yordamida bolalar tahlil va sintez, tadqiqotning elementar komponentlarini ajratishga muvaffaq bo'ladilar. Shuning uchun bu holat, boshlang'ich ta'lim bosqichida reproduktiv fikrlashni shakllantirishga ham katta yordam beradi. Y.G.Revinaning so'zlariga ko'ra, matematika darsliklarida bunday topshiriqlar bor, lekin ular kichik yoshdagi o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini to'liq rivojlantirish uchun yetarli emas. Ularni qanday aniqlash mumkin? Ular oddiy muammolardan mazmuni, shakli va hal qilish usullari bilan farqlanadi. Bu vazifalarni boshqa vazifalardan ajratib turadigan o'ziga xos xususiyati shuki, ularda yechimga erishishning noodatiy usuli aks etgan.

Taniqli psixolog E.G.G'oziyev o'zining "Kasbiy psixologiya" monografiyasida kreativ fikrlash fenomenini quyidagicha ta'riflaydi: Kreativ fikrlash bu – shaxsning bo'lajak sohaga kasbiy tayyorgarlik sifatlari sanalib, unda shaxsning motivatsion, hissiy-irodaviy, intellektual, individual-psixologik xususiyatlari hamda mustahkam egallangan ko'nikma va malakalari tizimidan iborat xususiyatlar majmuasidir. Darhaqiqat, kasbiy tayyorgarlik va munosiblik o'ziga xos jarayon sanalib, u har bir bo'lajak soha egalarida bo'lmog'i lozim hisoblanadi. Hozirgi kunda, psixologiya fanida "kreativ fikrlash" tushunchasi bilan uzviy holda tilga olinayotgan, ko'plab yangi tushunchalarni uchratish mumkin. Qoidaga ko'ra, insonning kasbiy shakllanish jarayonini uning xayot yulidan ayri holda tasavvur etib bulmaydi. Shuning uchun, kishining kasbiy shakllanishi uning yosh bosqichlariga mos holda butun hayoti davomida kechadigan jarayon bo'lib, u shaxsning shakllanishiga mos holda rivojlanib boradi.

Demak, bo'lajak o'qituvchilar muhim kasbiy bilimlarni egallash bilan birga, o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantiruvchi, nostandart masalalar va qiziqarli arifmetik amallar, jumboqli savollar, mantiqqa asoslangan masalalar to'plamini ham puxta o'zlashtirishlari lozim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Амельченко Т.В. Профессиональная компетентность будущего специалиста: Теоретические основы: монография. — Чита: ЧитГУ, 2006. — С.73.
- 2.Пиаже Жан Речь и мышление ребенка / Жан Пиаже. - Москва: ИЛ, 2008. — С.22.

З.Сидоренко Н.С. Развитие логического мышления в рамках непрерывного образования (от школы к вузу и от вуза к школе) // Научный вестник Южного института менеджмента. 2015. №

